



Mavzu: Mirtemir lirikasi

Adabiyot

Abdukadirova M.M.




Reja:

1. Mirtemir hayoti va ijodi haqida ma'lumot.
2. Mirtemirning lirik asarlari.
3. Mirtemir she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari.



MIRTEMİR LIRIKASI (1910-1978)







Mirtemir Tursunov 1910- yilda Turkiston shahrining Iqon qishlog'ida tug'ilgan.



- Avval bobosi qo'lida va keyin eski maktabda tahsil olgan.
- So'ng Toshkentga kelib, «Almaiyl» nomidagi bolalar namuna ish mакtabida tarbiya ko'radi.

- Samarqanddagi O‘zbekiston Davlat pedagogika akademiyasida o‘qiydi.
- O‘qishni bitirib maktablarda muallimlik qiladi, nashriyotlarda mehnat qiladi.
- Yozuvchilar uyushmasida ishlaydi.





1-SHE'RI

Shoirning birinchi she'ri
«Tanburim ovozi» 1926-yili,
16 yoshida e'lon qilinadi.



1-TO'PLAMI



1928-
yili

- «Shu'lalar qo'ynida» nomli ilk she'riy to'plami nashr etiladi.



Shoir umri davomida o‘nlab she’rlar va dostonlar to‘plamlarini chop ettirdi:



TIIAME

- «Zafar»;
- «Qaynashlar»;
- «Tong»;
- «Bong»;
- «Poytaxt»;
- «O’ch»;
- «Surat»;
- «Qoraqalpoq daftari»;
- «Tingla, hayot!»;
- «Izlaganim»;
- «Tog’day tayanchim»;
- «Yodgorlik».



Tarjimalari



30-yillarda u juda ko‘p vaqtini tarjimalarga bag‘ishlaydi.
Quyidagi ijodkorlarning she’r va dostonlarini o‘zbekchaga
tarjima qildi:

**A. S. Pushkin, M. Y. Lermontov,
N. A. Nekrasov, T. G. Shevchenko ,
Homer, Shota Rustaveli,
H. Heyne, Tagor, Maxtumquli,
Berdaq, Nozim Hikmat.**



Eslab qoling!



- «*Manas*» qirg‘iz xalq eposi,
«*Qirq qız*» qoraqalpoq xalq dostoni Mirtemir domla zahmatlari tufayli o‘zbek o‘quvchisiga yetib kelgan.



Do`stlar



Миртемир

Шайхзода



Mirtemir
1978-yil
24-yanvarda
68 yoshida
vafot etdi.



E'tirof



TIIAME

- Shoirning avlodlarga qoldirgan ijodiy merosi ardoqlanib, **4** jildlik «Asarlar»i nashr etildi.
- Mustaqillik yillari Mirtemir domlaning xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishdagi ulkan xizmatlari taqdirlanib, 2001-yil **«Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi.**



Mirtemir lirkasi haqida



Lirk she`riyat shoir qalbining kundaligidir. To`g`ri, lirk she`riyatning bu qoidasiga hamma shoirlar ham riosa qilavermaydilar. Lirk she`riyat shoir qalbining kundaligi bo`lishi uchun shoirda lirk iste`doddan tashqari, samimiylilik, o`z ruhiyatida kechayotgan o`zgarishlarni, ruhiy hayotining to`lqinli holatlarini haqqoniy aks ettirish, tabiat va jamiyatda ro`y berayotgan voqealarini o`z yuragidan o`tkazish madaniyati bo`lishi darkor.

Mirtemir, ayniqsa, urushdan keyingi davrlarda lirk kechinma tasviriga katta e`tibor berib, ajoyib lirk durdonalar yaratdi.

Mirtemirning lirk she`rlari orasida muhabbat mavzusiga bag`ishlanganlari oz emas. Ammo bu she`rlarning aksarida, xuddi mumtoz she`riyatdagi kabi, umumlashgan, muayyan qirralardan xoli bo`lgan an`anaviy, yana aniqroq aytsak, kitobiy yor obrazi tasvirlanadi. Shu kabi she`rlar orasida yor obrazi ozgina bo`lsa-da, aniq-tayin sifatlar kasb etgan “Men seni ...” singari she`rlar ham bor.



“Men seni injitmayman Va lekin tinchitmayman...” satrlari bilan boshlanuvchi bu she`r 1960-yili Qirg`izistonda yozilgan. Bu she`rning badiiy jihatlariga nazar tashlashdan avval uning ijodiy tarixiga to`xtab o`tish joiz.

1960-yilda qardosh yozuvchilar o`rtasida adabiy aloqalarning yaxshi yo`lga qo`yilgani bois Mirtemir qirg`iz yurtiga borib, qardosh yozuvchilarning mehmoni bo`lgan va shu yerda o`zining “Qirg`iz she`rlari” turkumini yoza boshlagan. O`zbekona tanti tabiatli shoir biror joyga garchand mehmon bo`lib brogan bo`lsada, ko`proq mehmonlarga dasturxon yozish va ular ko`nglini olishni sevgan. Bunday paytlarda shoirning sayohatga birga borgan xotiniga aslo tinim bolmagan...

“Men seni injitmayman Va lekin tinchitmayman...” Bu so’zlar bilan boshlangan she`r shoirning xotini Yorqinoyga, turkistonliklar tili bilan aytganda , To’rash kelin oyiga bag’ishlangan.



Hozirgina ko'rganimizdek, she'rning asosiy qismi yetti hijoli satrlardan tashkil topgan. Ammo o'qtin-o'qtin she'riy oqimga o'n to'rt hijoli satrlar ham kirib keladi. Garchand bu satrlar ham yetti hijoli turoqlardan tashkil topgan esa-da, fikr va tuyg'uning tugal holga kelishi va qofiyalanish tartibiga ko'ra, yetti hijoli she'riy nutqning davomi bo'la olmaydi. Bu o'n to'rt hijoli satrlar shoir tuyg'ularining favvorasi o'laroq otilib chiqadi va o'ziga xos lirik kechinma vazifasini o'taydi.

Yuqorida keltirilgan satrlargan keyin fikr va tuyg'u to'lqini bunday mavjlanib ketadi:

Charx urib, bo'z to'rg'ayday bo'zlashim bor boshingda

Ey, sochlaring to'lqini tun singari sim-siyoh,

Xol kabi paydo bo'lgum yonog'ing yo qoshingda,

Ey, izlaring g'ubori ko'zlarimga to'tiyo...

Yorni ulug`lovchi yetti hijoli yengil va jo`shqin satrlardan keyin muhabbat tuyg`ularining bunday po`rtanasi she`riy oqimni to`lqinlantirib yuboradi. Bu hol shoir yoki lirik qahramon qalbidagi tuyg`ularni yanada baland pardada ifodalash imkonini beradi. "*Charx urib, bo'z to'rg'ayday bo'zlashim bor boshingda*" satridagi *b* va *z* alliteratsiyalari xuddi lirik qahramonning bo`zlayotgan holatiga jo`rlik qilayotgandek tuyuladi. Keyingi "*Ey, sochlaring to'lqini tun singari sim-siyoh,*" satridagi *s* va *bo`z* so`zidagi *z* tovushining so`nib borayotganini anglatса, *t* tovushining, yot kishilar nazaridek, oraga suqilib kirishi bilan lirik qahramon bo`zlashdan to`xtaydi.



- Endi bu banddagi so`nggi satrga e`tabor bering: “*Ey, izlaring g’ubori ko’zlarimga to’tiyo...*” Bu satrda shoir yorni baland pardada ulug`labgina qolmay, o`zini yoki lirik qahramonni ham yor qadriga yetuvchi, uni ilohiylashtira biluvchi inson, yuksak ma`naviy olam sohibi sifatida namoyish etadi.
- She`rni o`qir ekanmiz, yor va lirik qahramon obrazlari yonma-yon gavdalanishda davom etadi. Agar yor lirik qahramon yoki shoirning unga bo`lgan munosabati orqali o`zining munavvar qirralarini namoyish etsa va tobora yuksalib borsa, lirik qahramon yorga bo`lgan o`ta madaniy munosabati bilan bizda hurmat tuyg`ularini uyg`otadi.



- Mirtemirning “Ona tilim” (1974) she`ri o`zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishidan 15 yil avval yozilgan. Binobarin, aytish mumkinki, shoir o`zbek tiliga umumxalq va umumdavlat miqyosida katta e`tibor berish, uning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish lozimligini o`sha vaqtdayoq yurakdan his etgan. She`rning har bir satrida shoirning ona tiliga bo`lgan shunchaki muhabbati emas, balki ona tilining qadriga yeta olmayotgan kimsalarga, hatto zamonga bu tilning tarixan qadimiyligini, boyligini, xalqning tarixi va taqdiri bilan chambarchas bog`liqligini tushuntirish istagi sezilib turadi.
- Ona tilim – onajonim tili bu,
- Beshikdanoq singgan jon-u quloqqa.
- El-u yurtim, xonumonim tili bu,
- Qadimlikda o`xshar ona tuproqqa...



Shoir Otayor Mirtemir haqida alohida risola yozgan.





Mirtemir she'riyatidan namunalar



BU — MEN TUG‘ILGAN TUPROQ



- Bu — men tug‘ilgan tuproq.
- Ha, men tug‘ilgan tuproq,
- Tog‘lar, ko‘m-ko‘k adirlar, daryolar, cheksiz qumloq.
- Bo‘ronlar qamchilashar, yomg‘irlar tomchilashar,
- Qishda qalin qordan oq, kuzda-chi, paxtadan oq.
- Taqvodorday cho‘k tushib, peshonamni qo‘yaman,
- Onam kabi o‘paman, qalb mehriga to‘yaman. ...



1. «*Kayxusrav qilichidan kesikbosh bobom xoki, Kim noxos oyoq qo‘ysa, haqoratga yo‘yaman»* misralarini sharhlab bering.
2. «*Guldor, naqshin qorako‘l yetti ranglik, yarqiroq»* misrasini izohlashga urining.




ONAGINAM

- Tovonimga chaqir tikanakday botguvchi — g‘ashlik.
- Bedavo sizloviqday sizlatguvchi — g‘ashlik.
- Jigаримни qиymalab ahyon-ahyon,
- Chuchvaraga chekkuvchi — g‘ashlik.
- Meni o‘ylab notavon va nimjon,
- G‘ashimga tekkuvchi — g‘ashlik...



1. She’rdagi «**botguvchi**», «**sizlatguvchi**», «**chekkuvchi**», «**tekkuvchi**» «**g‘ajiguvchi**», «**achiguvchi**» singari sifatlashlar qaysi tushunchaga tegishli?
2. Ona oldida farzandlik burchini o‘tay olmagan kishining afsuslari ifodasi eng avjiga chiqqan o‘rinni aniqlang.





TOSHBÚ

- Chayirsan, chechansan,
chuchuksan so'zsiz,
- Ertakday ezgusan, buloq yanglig‘
pok.
- Ko‘z ololmas hatto ilg‘asa
ko‘zsiz,
- Holbuki, munglug‘san.
- G‘amdan ko‘ksing chok...





BETOBLIGIMDA



- Majnuntol tagiga o‘tqazing meni,
- Qovrilmay to g‘ashlik alangasida.
- Majnuntol tagiga o‘tqazing meni,
- Nafasimni rostlay ko‘lankasida.
- Majnuntol tagiga o‘tqazing meni,
- Qushlar ovoziga qulq solayin.

1. «*Qovrilmay to g‘ashlik alangasida*» misrasida shoirni qanday g‘ashlik qovurmoqchi deb o‘ylaysiz?
2. Betob shoirning «*Xayol og‘ushida orom olayin*» tarzidagi istagini sharhlang.
3. Shoirning: «*Shu kungacha o‘zni men cheklab bo‘ldim*» tarzidagi iqrorini izohlang.





Savollar:



- 1. Mirtemir hayoti va ijodi haqida so‘zlab bering.
- 2. Shoirning birinchi she’ri va to‘plami qanday nomlanadi, ular qachon e’lon qilingan?
- 3. «Mirtemir - tarjimon» mavzusida suhbatlashing.
- 4. Shoir ijodidagi bosh mavzular haqida so‘zlang.
- 5. Mirtemirning tavsiya etilgan she’rlaridan birini yod oling.
- 6. «Bulut» she’rida badiiylik, jumladan, ohangdoshlik nimalarda ko‘rinadi?
- 7. «Baliq ovi» she’rida shoir tug‘ilib o‘sgan yurt tasviri haqida so‘zlang.
- 8. «Mehmondo‘stlik - milliy qadriyat» mavzusida suhbatlashing.
- 9. Mirtemir she’rlarida bolalik xotiralarining o‘rnini qanday izohlaysiz?
- 10. Nima uchun shoir qishlog‘ini «qo‘li qadoqlim» deb aytadi?
- 11. Mirtemir she’riyatining ahamiyati haqida mulohaza yuriting.



Uyga vazifa:

1. Mirtemir hayoti va ijodini o`rganing.
2. Mirtemir lirikasidan o`zingizga yoqqan she`rni yodlang.